

## USTOZ va SHOGIRD

Ushbu kitobning nomi, garchi olim va ta'lim oluvchi, degan ma'noni anglatsa-da, biz uni «Ustoz va Shogird», deb tarjima qildik. Zero, kitob Abu Hanifa bilan u zoti sharifning shogirdlari Imom Abu Balxiy savol-javoblari asosida ta'lif etilgan. Ustoz va shogird o'rtasida bo'lib o'tgan ilmiy bahsu munozarani Imom Abu Muqotil ibn Muslim as-Samarqandiy rivoyat qilib, bizgacha yetkazgan.

Kitobdagi savol-javoblar har bir musulmon bilishi zarur bo'lgan o'ta muhim va o'ta nozik masalalarni qamrab olgan. Uni diqqat bilan o'qib chiqqan vatandoshlarimiz, xususan, tolibi ilmlar islomiy e'tiqodga oid o'zlarini qiynab yurgan savollarga qoniqarli javob topadilar, deb umid qilamiz.

*Kitob shunday boshlanadi:*

### **Bismillahir rohmahir rohim**

Allohgga hamd bo'lsinki, Uning in'omlari (ne'matlari) bois solih amallar kamolot cho'qqisiga erishadi.

Sayyidlarning Sayyidi, xojamiz Muhammad, sollallohu alayhi va sallam va u zotning avlodlariga, sahobalariga va pokiza ahli ayollariga durudu salom bo'lsin! Yaratilish va parhezkorlik jihatidan ham eng haqir bo'lgan, balki, haqiqatdan ham hech narsaga arzimaydigan Mustafo Oshir, Alloh uni mag'firat qilsin va nomini gunoxlaridan ko'ra aziz qilsin, dedi:

- Men buzruk imomimiz Abu Hanifaning (Alloh u zotdan rozi bo'lsin) «al-Olim va al-Mutaallim» asarini pirim va ustozim Hoji Husayn ibn Muhammad ibn Hasan al-Miyimiy al-Basriydan (Alloh rahmat qilsin u zotni) rivoyat qilaman...

Kitobni mazkur so'zlar bilan boshlagan Mustafo Oshir haqiqatdan ham «al-Olim va al-Mutaallim» risolasi Imomi A'zam qalamlariga mansub ekanligini isbot qilish uchun mazkur risolani bevosita Imomimizning og'izlaridan eshitgan Imom Abu Muqotil Hafsi ibn Muslim as-Samarqandiygacha yashab o'tgan barcha roviylarning nomlarini birma-bir sanab o'tgan.

Xuddi shuningdek, Mustafo Oshir Abu Hanifaning «al-Fiqh al-Absat» asarini imomimizning og'izlaridan u zotning shogirdlari Abu Muti' al-Hakam ibn Abdul-loh al-Balxiy, «al-Fiqh al-Akbar»ni esa Imomimizning o'g'illari Hammud ibn Abu Hanifa eshitib, rivoyat qilganlarini ta'kidlamog' uchun ulargacha bo'lgan hamma roviylarni nomma-nom bayon qilgan.

Biz o'quvchilarga malol keltirmaslikni nazarda tutib, kitoblarni rivoyat qilishda ishtirok etgan roviylarning to'liq nomlarini mufassal bayon qilishni lozim topmadik. Ularni bilishni istaganlar kitoblarning asl nusxalariga murojaat etishlari mumkin.

## **USTOZ VA SHOGIRD**

### **Shogird:**

- Ustoz! Chuqur bilimingiz, boy tajribangiz, fazlu karamingiz yordamida ko'nglimdan joy olgan shubhali savollarga qoniqarli va aniq javob olish uchun huzuringizga keldim. Hayot taqozosi bilan men turli xil fikrdagi odamlarni uchratib turaman va ular menga ba'zida shunday savollar beradilarki, ularga javob topishdan ojiz bo'lib qolaman. Ularning savollariga javob berolmasam-da, bilganim haqiqatdan qaytmayman. Zero, haqni bayon etguvchilar bor. Haq yo'q bo'lmaydi. Botil yashamaydi.

Shuningdek, meni hali hech narsani bilib ulgurmagani yosh tolibi ilmlarga tenglashtirishlarini va gohida meni ko'ngliga kelgan narsani aytaveradigan «birsom» (jigar bilan qalb o'rtasining shamollashidan paydo bo'ladigan kasallik) dardiga muhtalo bo'lgan bemorga qiyos qilishlarini istamayman. Shuning uchun, ustoz, Alloh taolo holingizni xayrli qilsin, ergashganim haqiqat aslini bilishni va uni so'zlashni istayman, toki havodor haddan oshmoqchi yo meni haqdan qaytarmoqchi bo'lsa, maqsadiga erishmasin, yo tolibi ilm mendan ta'lim olmoqqa kelsa, unga o'zim tushinib, o'rgatay.

### **Ustoz:**

- Bilmagan narsalaringni bilishga intilishing har qancha tahsinlarga loyiq. Bilib qo'yginki, inson jismidagi hamma a'zolar uning ko'zlariga bog'liq bo'lganidek, uning amallari ham ilmga bog'liqdir. Cho'lda, adashilganida kerak bo'lgan ko'p ozuqadan ko'ra to'g'ri yurilganida, zarur bo'lgan ozgina ozuqa qanchalik foydali bo'lsa, ilmga asoslangan ozgina amal ham jaholat ila qilingan har qancha ko'p amallardan foydaliroqdir. Shuning uchun Alloh taolo: «... "Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'lurmi?!" Darhaqiqat, faqat aql egalorigina eslatma olurlar» (Zumar, 9, mazmuni), deb marhamat qiladi.

### **Shogird:**

- Qalbidam ilm olishga bo'lgan ishtiyoqimni yanada ziyoda qildingiz, ustoz. Yuqorida aytganimdek, men turli saviyadagi odamlar bilan muloqotda bo'lib turaman. Ulardan, inshaalloh, mening nazarimda eng past saviyada bo'lganlaridan gapni boshlayman. Menga ularga qarshi dalillarni ayting. «Bu ishga aslo daxl etma. Zero, sahobalar ham bu ishlarning hech biriga daxl etmaganlar. Ular qilganini qil», deydi toifalarni ko'rdim. Ular meni bilganimdan ham oshirishdi. Ular toshqin daryo ichida turgan, uning sayoz joyini bilmaganidan g'arq bo'layotganga, joyingda tur, sayoz joyni izlama, deyayotgan kishiga o'xshaydilar.

### **Ustoz:**

- Sen ularning kamchiliklaridan ba'zilarini ko'rib, ularga qarshi dalil izlayotganingni payqadim. Agarda ular senga: «sahobalarga yetgan narsa sizga yetmaydimi?» desalar, ularga: «sahobalarning o'rinlarida bo'lganimda, ularga yetgan narsa menga ham yetardi, ammo ularning huzurida bo'lgan zot mening yonimda yo'q», degin.

Biz, bizni badnom qiluvchilarni va qonlarimizni to'kishni halol deguvchilarga duchor bo'ldik. Qaysi birimiz nohaq va qaysi birimiz haq? Buni bilmasligimiz mumkin emas. Biz o'zimizni va nomusimizni himoya qilmog'imiz lozim. Rasulullohning, alayhissalom, ashoblari esa, qarshi kurashuvchilari bo'lmaganidan aslahaga ehtiyoj sezmagani xalqqa o'xshar edilar. Biz esa, bizni badnom qiluvchilarga va qonlarimizni to'kishni halol deguvchilarga duchor bo'ldik.

Insonlar kelisholmagani masalani eshitganida kishi so'zlashdan tilini tiysada, qalbini tiyolmaydi. Zero, qalb tomonlardan birini yo ikkisini ham yoqtirmasligi kerak. Ammo

kelisholmagan tomonlarning hammasini yoqtirishi mumkin emas.

Agar qalb zulmga moyil bo'lsa, zolimlarni yaxshi ko'radi. Qaysi xalqni yaxshi ko'rsa, ular jumlasidan bo'ladi. Agar qalb haqqa va unga ergashganlarga moyil bo'lsa, ularga do'st bo'ladi. Buning sababi shuki, amal va so'zlarning yuzaga chiqishi qalbgga bog'liqdir. Shuning uchun ham til bilan imon keltirib, qalb bilan imon keltirmagan banda Alloh nazdida mo'min emas va aksincha, qalb bilan imon keltirib, til bilan imon keltirmagan banda Uning nazdida mo'mindir.

### **Shogird:**

- Ustoz, ayting-chi, kim haqu kim nohaq ekanligini bilmasligimning menga zarari bormi?

### **Ustoz:**

- Haqni nohaqdan ajrata olmasliging senga bir tomondangina zarar qilmaydi. Boshqa tomonlardan ham zarar qiladi. Senga zarari yetmaydigan tomoni shundaki, sen nohaqning amali uchun jazo olmaysan, Ammo uning senga zararli tomonlari esa ushbulardir:

1. To'g'rini noto'g'ridan ajrata olmasliging sababli odamlar orasida ilmi yo'q ekan, degan nom olasan; Haq yoki nohaq ekanligingni bilmasliging xato qilyapsanmi yoki yo'qmi, ajrata olmasliging sababli seni shubhaga tushiradi va undan chiqish yo'lini bilmaysan; Haqni nohaqdan ajrata olmasliging natijasida sen birovni Alloh rizoligi uchun yaxshi ko'rishingni va yoki birovni Alloh rizoligi uchungina yomon ko'rishingni bilmay qolasan.

### **Shogird:**

- Ustoz, ko'zlarimdan jaholat pardasini olib tashladingiz. Ayting-chi, ustoz, to'g'ri deb bilingan kishi muxoliflarining to'g'riligini yoki adashganini bilmasa, uni haqiqatni biluvchi haqiqat ahlidan deb atash mumkinmi?

### **Ustoz:**

- To'g'ri deb bilingan kishi muxoliflarining to'g'riligini yo adashganini bilmasa, adashgan va to'g'rini bilmagan johildir. Ey birodar! Ular mening nazdimda eng johil va past toifadir. Ular oppoq ko'ylak sotib olib, bir-biridan uning rangini surishtirayotgan to'rt kishiga o'xshaydi. Ularning biri ko'ylakning rangini qizil deydi, boshqasi sariq, uchinchisi esa qora va nihoyat, to'rtinchisi uning rangi oq, deydi. Uchovi haqida qanday fikrdasan, ular haqmilar yoki adashdilar? — deb to'rtinchisidan so'ralsa, u, men aniq bilamanki, ko'ylakning rangi oq, ammo ular haq bo'lsalar ham ajab emas, deb javob beradi. Xuddi shuningdek, bu toifadagi odamlar: «biz aniq bilamizki, zinokor kofir emas» va «Zinokor zino qilayotgan vaqtida undan imoni ko'ylagini yechgan kabi yechiladi», deb rivoyat qilgan roviy, ajab emaski, rostgo'y bo'lsa, biz uni yolg'onchi hisoblamaymiz, deydi. Shuningdek, ular: biz imkoni bo'la turib, haj qilmasdan vafot etgan bandani mo'min deb ataymiz, unga janoza o'qiyamiz, talabi mag'firat qilamiz va uning uchun hajji badal amalini ado etamiz, yahudiy qavmida va yoki masihiy qavmida vafot qilibdi, deydiganlarni ham yolg'onchiga chiqarmaymiz, deyishadi. Bunday toifadagi odamlar shialar, xavorijlar va murjialarning aytganlarini inkor etadilar, ammo ularning so'zlarini aytadilar.

Bu uch toifaning safsatalarini rost deguvchilar, yolg'on deb hisoblaydiganlar ham bor. Yana bu borada, Rasululloh, alayhissalom, aytganlar, deb hisoblaganlari rivoyatlar keltirishadi. Ular: biz, shubhasiz, Alloh taolo Rasulini (s.a.v.) ixtilof chiqarish, musulmonlar bir-birlarining yuzlarini tirnashlari uchun emas, balki rahmat etib, tarqalganlarni birlashtirish, ittifoqni kuchaytirish uchun yuborganini bilamiz, deyishadi va

ixtiloflar rivoyatlarning turli-tumanligi bois ro'y bergandir, ularning nosix va mansuxlari bor, deb o'ylaydilar-u, rivoyatlarni qanday eshitgan bo'lsak, shunday rivoyat qilamiz, deyishadi. Xayf ulargaki, oqibatlariga tegishli ishlarga oz ahamiyat beradilar, odamlar oldilarida tik turib, ba'zi mansux bo'lganlarni aytadilar. Vaholanki, bugungi kunda mansuxlarga amal qilish zalolatdir. Chunki odamlar, mansuxlarga amal qilsalar, zalolatga ketadilar.

Bizga ma'lumki Payg'ambarimiz, alayhissalom, bir oyatni hech qachon ikki xil tafsir qilmaganlar, barcha insonlarga nosix oyatlarni nosix va mansuxlarni mansux, deb tafsir etganlar. Nosix va mansux masalasi faqat amr va nahiyya oid oyatlarga daxldordir. Xabar va sifatlarning hech birida mansux yo'qdir.

### **Shogird:**

Ustoz, Alloh Sizni Jannat bilan siylasin. Haqiqatdan ham, siz olijanob muallim ekansiz. Ilm sohasida men bilmagan yangi bobni ochib berdingiz. Mazkur toifadagi odamlar so'zlarining zaifligi, fikrlarining ojizligini chuqur bilishda men e'tibor qilmagan tomonlarini bayon etdingiz. Endi ikkinchi toifa kishilarning: «Allohning dini ko'p, u, ya'ni din, Alloh farz etgan barcha amalni bajarish, harom qilgan hamma narsalardan saqlanish», deyishlarini rad qilish yo'lini ayting.

### **Ustoz:**

- Sen barcha payg'ambarlar bir dinda ekanliklarini bilmasmiding?! Ularning hech biri qavmini o'zidan oldin o'tgan payg'ambarning dinini tark etishga da'vat qilmagan. Zero, hamma payg'ambarlarning dini bir bo'lgan. Har bir payg'ambar o'z shariatiga da'vat etgan, o'zidan avval o'tgan payg'ambarning shariatidan qaytargan. Ularning shariati har xil va ko'p bo'lgan. Shuning uchun Alloh: «...Har bir (ummat) uchun (alohida) shariat va yo'l (tayin) qilib qo'ydik. Agar Alloh xohlasa edi, sizlarni bir ummat (bir xil shariatda) qilib qo'ygan bo'lur edi...» (Moida, 48, mazmuni). Alloh ularga bir dinni barpo etishni buyurgan. U din tavhid - Allohni bir va yagona, deb e'tiqod qilmoqlik dinidir. Alloh bandalarning ushbu dinda guruh-guruh, toifa-toifa bo'lib ketmasliklarini buyurgan. Alloh ularning dinini bitta qilgan.

Alloh taolo marhamat qiladi: «Alloh Nuhga tavsiya qilgani, vahiy orqali xabar bergani va sizga (ey Muhammad), Ibrohimga, Musoga, Isoga tavsiya qilganlari dindand ekanligini shar'iy (qonuniy) qilib qo'ydi».

«...sizlar uchun din bo'yicha Nuhga buyurgan narsani va Biz sizga (Muhammadga) vahiy qilgan narsani, (shuning-dek), Biz Ibrohim, Muso va Isoga buyurgan narsani -shariat qildi...» (Sho'ro, 13, mazmuni). Bundan tashqari Alloh boshqa oyatlarida ham: «(Ey, Muhammad,) Sizdan ilgari Biz yuborgan har bir payg'ambarga ham: "Mendan o'zga iloh yo'q, bas, Menga ibodat qilinglar", — deb vahiy yuborgandirmiz» (Anbiyo, 25, mazmuni).

«...Allohning yaratuvchiligini (anglangiz!). Allohning yaratishiga o'zgartirish yo'q. Eng to'g'ri din shudir...» (Rum, 30, mazmuni). Allohning dinini o'zgartirib bo'lmas. Din almashtirilgan, buzilgan va o'zgartirilgan emas. Ammo shariatlar o'zgartirilgan va almashtirilgan. Alloh ba'zi xalqlarga halol etgan narsani boshqa xalqqa harom qilgan, Alloh ba'zi bir ishni bir xalqqa amr qilgan va boshqa xalqni undan qaytargan. Shunday bo'lgach, shariatlar ko'p va turli-tuman bo'lgan. Shariatlar amrlardir.

Agar Alloh taoloning hamma amrlarini bajarish va barcha qaytariqlaridan tiyilish din bo'lsa, Alloh taoloning biror amrini bajarmagan yo biror qaytarig'iga qo'l urgan kimsa dindand chiqadi va kofir bo'ladi. Agar kofir bo'lsa u bilan musulmonlar orasidagi nikoh, meros, janoza, so'yganini yeyish kabi ishlar yo'q bo'ladi. Zero, Alloh taolo ularning

barchasini mo'minlar o'rtasida joriy qilgan. Imon sababli bir-birlariga noshar'iy qon to'kish va mollarini noshar'iy yeyishni harom qilgan.

Alloh taolo mo'minlarni, dinga iqror bo'lganlaridan so'ng ularga farzlarni ado etishni amr etgan. Alloh taolo marhamat qiladi:

«(Ey, Muhammad), imon keltirgan bandalarimga ayting, namozni mukammal ado etsinlar...» (Ibrohim, 31, mazmuni), «Ey, imon keltirganlar, taqvoli bo'lishlaringiz uchun sizlardan oldingi (ummat)larga farz qilingani kabi sizlarga ham ro'za tutish farz qilindi...» (Baqara, 183, mazmuni), «Ey, imon keltirganlar! Sizlarga o'ldirilgan kishilar uchun qasos olish farz qilindi...» (Baqara, 178, mazmuni); «Ey imon keltirgan bandalar, Allohni ko'p zikr qilinglar!..» (Ahzob, 41, mazmuni).

Ushbu farzlar imon bo'lganida edi, oyatlarda Alloh taolo ularni bajarmaslaridan ilgari bandalarni mo'minlar, deb xitoban atamagan bo'lur edi. Shubhasiz, Alloh taolo imon va amal o'rtasini ajratdi. Alloh taolo marhamat qiladi: «Imon keltirib, solih amallarni qilganlarga...» (Baqara, 25, mazmuni); «Yo'q, kimki yuzini (o'zini) Allohga bo'ysundirsa, Rabbi huzurida unga ajr muhayyodir...» (Baqara, 122, mazmuni); «Kimki oxiratni istasa va mo'minlik holvda (o'z) sa'yi bilan harakat qilsa, bas, unday zotlarning sa'ylari (Alloh nazdida) manzurdir» (al-Isro, 19, mazmuni).

Alloh taolo imonni amaldan boshqa etdi. Mo'minlar Allohga imon keltirganliklaridan namoz o'qiydilar, zakot beradilar, ro'za tutadilar, hajga boradilar va Allohni zikr qiladilar. Ular namoz o'qishlari, zakot berishlari, ro'za tutishlari va hajga borishlaridan Allohga imon keltirmaydilar. Ular avval imon keltirib, so'ng amal qiladilar. Shuning uchun ularning farzlarni bajarishlari Alloh taologa imon keltirganliklaridandir. Ularning imonlari farzlarni bajarishlaridan emas.

Bunga misol: Bir odam qarzdor bo'lsa, u, avvalo, qarzdorligiga iqror bo'ladi, so'ngra qarzini to'laydi. U hech qachon oldin qarzini to'lab, so'ngra qarziga iqror bo'lmaydi. Uning qarziga iqror bo'lishi uni to'laganidan emas, balki uning qarzini qaytarishi qarziga iqror bo'lishidandir. Qullar xojalariga xizmat qilganlaridan ularga qullikka iqror etmaydilar, balki qullar xojalariga qul ekanliklariga iqror bo'lganidan ularga xizmat qiladilar.

Sizlar ham bir-biringizga xizmat qilasiz, bu bilan qullikka iqror bo'lgan bo'lmaysiz, xizmat qilishni qullikka iqrorlik deyilmaydi. Boshqa birov qullikka iqror bo'lsa-da, ishlamasam undan qullik ismi yo'qolmaydi.

### **Shogird:**

- Juda yaxshi tushuntirdingiz, ustoz. Menga aytinchi, imon o'zi nima?

### **Ustoz:**

— Imon tasdiq, ma'rifat, yaqiy (shubhasizlik), iqror va Islomdan iboratdir. Tasdiq qilishda odamlar uch xil darajada bo'ladilar:

Allohni va U tomondan kelgan barcha narsani dili va tili bilan tasdiq qiladiganlar;

Allohni va U tomondan kelgan barcha narsani dili bilan tasdiq qiladigan, ammo tili bilan inkor etadiganlar;

Allohni va U tomonidan kelgan barcha narsani tili bilan tasdiq qiladigan va ammo dili bilan inkor etadiganlar.

### **Shogird:**

- Ustoz, men topa olmay yurgan masalani ochdingiz. Ayting-chi, mazkur uch darajadagi odamlar Alloh taolo nazdida mo'min hisoblanadimi?

**Ustoz:**

- Allohni va U tomonidan kelgan barcha narsalarni dili va tili bilan tasdiq qilgan bandalar Alloh nazdida ham, odamlar nazdida ham mo'mindirlar. Tili bilangina tasdiq qilib, dili bilan inkor etgan banda Alloh nazdida kofir, ammo odamlar nazdida mo'mindir. Chunki, odamlar bunday kimsaning qalbida nima borligini bilmaydilar. Shuning uchun odamlar undan zohir bo'lgan iqroriga qarab, uni mo'min, deb atashlari mumkin. Ular qalblarni bilishga qiynalishlari kerak emas. Odamlardan, ularning nazdida kofiri, lekin Alloh taolo nazdida mo'mini bor. Ular dillari bilan Allohni tasdiq qiladilar, lekin ular xavfu xatardan o'zlarini himoya qilish uchun tillari bilan kuforni izhor qiladilar va odamlar ularning ehtiyotkorligini bilmay, ularni kofirlar deb ataydilar. Ammo ular Alloh nazdida mo'mindirlar.

**Shogird:**

- Ko'p yaxshi gaplarni aytdingiz, ustoz. Ammo imonni tasdiq, ma'rifat, yaqiy, iqror va Islom deb ko'p hisobladingizmi?

**Ustoz:**

- Sen ko'pam shoshilaverma, fatvoda ehtiyot bo'l. Mening aytayotganimga e'tirozing bo'lsa, samimiy bo'lsang, mendan ularni sharxlab berishni so'ra! Odam eshitgan so'zini yoqtirmasligi ham mumkin. Unga agar so'z sharxlab berilsa, undan qoniqish paydo bo'ladi. Sen bir gapni eshitib yoqmagani uchun uni qoralash maqsadida, bu so'zning men bilmagan tafsiri va sababi bo'lsa kerak, birodarimdan uning tafsirini so'rayin, balki, bu so'zlar uning og'zidan beixiyor chiqib ketgandir, uni aniqlab olsam yaxshi bo'lardi, uning asl maqsadini bilmasdan turib, uni aybdor qilishim durust emas, deb odamlar orasida tarqatib yuruvchiga o'xshama.

**Shogird:**

- Ustoz, Alloh sizni sobitqadam qilsin, sizga bergan yaxshilikni davomli qilsin! So'zlaringizni anglab yetdim. Mendan sodir bo'lgan nuqsonu kamchilikni kechiring, men hali g'o'r shogirdman. Menga siz tavsif qilgan tasdiq, ma'rifat, iqror, Islom va yaqiyning e'tiboringizdagi darajalarini va tafsirini aytib bering.

**Ustoz:**

- Mazkur kalimalar turli bo'lsa ham, ammo ularning ma'nolari bir, ya'ni Imondir. Allohni parvardigorim deb iqror bo'lish, Uni parvardigorim deb tasdiq qilish, Uni parvardigorim deb yaqiy etish, Uni parvardigorim deb tanish (ma'rifat) Imondir. Bu so'zlar turli bo'lsa ham, ularning ma'nosi birdir. Masalan, bir kishini: ey odam, ey kishi, ey falonchi deyilsa ham, uning bir o'zi chaqiriladi.

**Shogird:**

- Ustoz, agar ilmim sayozligini va ra'yim zaifligini bilmaganimda, huzuringizga kelmagan bo'lardim. Ustoz, mendan sizga yoqmaydigan hatti-harakat sodir bo'lganini sezgan yoki og'irlik o'tgan bo'lsa, meni koyimang. Zero, bemorni davolash og'irligi tabibga, ko'zi ojizning og'irligi ko'zi ochiqqa tushadi. Xuddi shuningdek, olim savodsiz odamning og'irligini ko'tarishi lozim. So'zlaringizdan johil odam eshitsa, unga yoqmaydigan so'zlar borligini, agar unga yotig'i bilan tushuntirilsa, qanoat hosil qilishini angladim. Shuningdek, imon, tasdiq, ma'rifat, yaqiy va iqorni juda yaxshi tushuntirdingiz. Endi aytingchi, bizning imonimiz farishtalar va payg'ambarlar imonlari kabi, deb qanday aytamiz. Shubhasiz, ularning bizlardan ko'ra Allohga itoatliroq ekanliklarini bilamiz-ku?

**Ustoz:**

- Sen farishtalar va payg'ambarlarning bizdan ko'ra Allohga itoatliroq ekanliklarini bilibsan. Men senga imon amal emas, degan edim. Shuning uchun, bizning imonimiz ham ularning imonlari kabidir. Chunki biz ham ular kabi Allohning yakkayu yagonaligini, Uning parvardigorligini, Uning qudratini va U tomonidan kelgan barcha narsalarni tasdiq qilganmiz. Shuning uchun imonimiz farishta va rasullarning imonlari kabi deymiz. Anbiyo va rasullar ham ularni tasdiqlaganlar. Farishtalar-ku Allohning ajoyibotlarini ko'rib, Unga imon keltirganlar, biz esa ularni ko'rmasdan turiboq, imon keltirganmiz.

**Shogird:**

- Ustoz, Alloh sizni najot topganlardan qilsin! Aytganlaringiz g'oyat go'zal. Menga ayon bo'ldiki, bizning imonimiz, tasdiqimiz va jazmimiz farishtalarnikidek ekan. Ayting-chi, ular nega bizga nisbatan Allohdan qo'rqadiganroq va Unga itoatliroqlar? Ba'zi johillar biror bandaning xatosini yo musibat yetganida besabrlikini yoki dushmandan qo'rqqanini yoki hoyu havasga berilganini ko'rganida, bu yaqiyin zaifligi deb aytishni qaerdan olishgan?

**Ustoz:**

- Johillarning yaqiyin zaif deyishlariga kelsak, ular yaqiyinning tafsirini bilmaganlaridan aytishgan. Yaqiyin bir narsani hech ikkilanmay qat'iy bilmoqlikdir. Imon keltirganlarning birortasi gunoh qilsalar ham, Allohning yagonaligiga, Uning kitoblariga, Uning farishtalariga shak-shubha qilmaydilar. Biz odamlarning holatini o'zimizning holatimizga qiyoslaymiz. Bizdan xato o'tishi, boshimizga biror musibat yetganida besabrlik qilishimiz, dushmandan qo'rqishimiz mumkin. Ammo hech qachon bizning qalbimizda Allohga va Uning tomonidan kelgan barcha narsalarga shubha tug'ilmaydi. Biz boshqalarni ham o'zimizday deb o'ylaymiz.

Ha, farishtalar, payg'ambarlar bizga nisbatan Allohdan qo'rquvchiroq va Unga bizdan ko'ra itoatliroqdirlar, buning bir necha sabablari bor:

1. Ular payg'ambarlik va rasullik bilan siylanganlaridek, qo'rqish, rag'bat, oliy xulklarda ham boshqalardan ortiq qilinganlar;

Payg'ambarlar farishtalardan biz ko'rmagan ajoyibotlarga shohid bo'lganlar;

Payg'ambarlarga gunoh ishlar oldida fursat qo'yilmagan;

Payg'ambarlar gunohkorlar boshiga tushayotgan jazoni ko'rib turar edilar va bu holat ularning gunoh ishlardan tiyilishlariga sabab bo'lgan.

**Shogird:**

- Ustoz, siz bayon etganingizni tushundim. Siz haqiqatni bayon etishda va ularni aytishda davom etmoqdasiz. Siz menga bayon etganingiz yaqiyimiz, xavfimiz va jur'atimiz payg'ambarlarning shunday xislatlari qanday farq qilishini qiyoslab tushuntirib berishingizni juda istar edim. Agar johil ishining oqibatini o'ylasa va o'rganishni istasa, unga tushunmagan bir ishni qiyoslab tushuntirsangiz, tez tushunib olishga imkoni bo'ladi.

**Ustoz:**

- Ha, qiyos haqida so'rab to'g'ri qilding. Zero, har bir tolibi ilm sherigi bilan darsini muzokara qilayotganida uni tushuna olmay qolsa, undan qiyoslab berishini iltimos qiladi. Bilginki, to'g'ri qiyos haqni izlovchining haqqini ro'yobga chiqaradi. Qiyos haqdor tomonida to'g'ri va rost guvohlikka o'tayotgan adolatli shohidga o'xshaydi. Johil odamlar

haqni inkor qilmaganida, olimlar qiyos va qiyoslash usulini ishlab chiqmagan bo'lur edilar.

Bizning yaqiyimiz va farishtalarning va payg'ambarlarning yaqiynlari bir bo'lsa-yu, ularning qo'rquvi bizning qo'rquvimizdan ortiq bo'lishining qiyosini istashingga kelsak, buni, ikkita bir xil suzish mahoratiga ega bo'lgan kimsalar sersuv va tezoqar daryo yoqasiga kelib, ulardan biri suvga tushishdan qo'rqmaydigan, ikkinchisi qo'rqadigan bo'lganiga yoki bir xil dardga chalingan ikki bemorga bir xil achchiq dori berilganida, ulardan biri uni ichishdan qo'rqmagani, ikkinchisi esa qo'rqqaniga qiyoslash mumkin.

### **Shogird:**

- Yaxshi tushuntirdingiz, ustoz. Bizning imonimiz payg'ambarlarnikidek bo'lsa, imonlarimizning savoblari ham bir xil emasmi? Agarda bir xil bo'lsa, u vaqtda payg'ambarlarning bizdan afzalliklari nimada? Dunyoda imonlarimiz teng bo'ladigan bo'lsa, oxiratda ham imon savobida teng bo'lishimiz kerak. Agarda imonimiz savobi oxiratda ularnikidan kam bo'lsa, ya'ni imonimiz teng bo'lsa-yu, bizga ularnikidan kam savob berilsa, zulm bo'lib qolmaydimi?

### **Ustoz:**

- Sen masalani juda jiddiylashtirib yubording. Fatvoda ehtiyot bo'li! Bizning imonimiz payg'ambarlarning imoni kabi ekanligini bilmaysanmi? Zero, biz ham ular imon keltirgan narsalarga imon keltirganmiz. Ammo ular imonlari va ibodatlari savobida bizdan ko'ra ortiqdir. Chunki Alloh ularni payg'ambarlik bilan boshqalardan afzal qilganidek, ularning so'zlarini ham, ibodatlarini ham, uylarini ham, iqomat qiladigan joylarini ham, barcha ishlarini ham boshqalarnikidan afzal qilgan. Alloh bizning savobimizni ularniki bilan barobar qilmagani zulm emas. Zulm bizning savobimizni kamaytirib, ranjitganida bo'lar edi. Ammo bizning haqimizni kamaytirmay bersa, zulm bo'lmaydi. Payg'ambarlar bu dunyoda boshqalardan ortiq fazilatga egadirlar. Zero, ular xalq yo'l boshchilari va Allohning ishonchli bandalaridir. Allohga ibodatda, Undan qo'rqishda, mashaqqat va og'irliklarga chidash va dosh berishda hech kim ularga teng kela olmaydi. Yana Allohning izni bilan odamlar payg'ambarlar tufayli fazilatga erishganlar. Payg'ambarlarga, ularning duolari sharofati bilan Jannatga kiradigan bandalarning savoblari bilan teng savob ham bo'ladi.

### **Shogird:**

- Alloh sizni Jannat bilan siylasin, ustoz. Haqni bayon etdingiz. Alloh shirkdan boshqa yana qanday gunohlar uchun bandalarni azoblashini bilasizmi? Yo gunohlarning hammasi mag'firat qilinadi deb o'ylaysizmi? Yo ularning ba'zilar mag'firat qilinadi deb o'ylasangiz, ayting-chi, ular qaysilari?

### **Ustoz:**

- Men Allohning bandani shirkdan boshqa gunoh uchun azoblashini bilmayman. Axli qiblalar gunohkorlardan birortasini Alloh shirkdan boshqa gunohi uchun azoblashiga guvohlik bera olmaydi. Aniq bilamanki, shirkdan bo'lak ba'zi gunoxlar mag'firat qilinadi. Ularnida bilmayman. Chunki Allohning: «Agar sizlar man etilgan gunohlarning kattalaridan saqlansangizlar, kichik gunohlaringizni sizlardan o'chirurmiz...» (Niso, 31, mazmuni) oyatiga ko'ra, kechiriladigan va kechirilmaydigan hamma gunohi kabiralar va kichik gunohlarni bilmayman. Alloh shirkdan boshqa barcha gunohlarni mag'firat qilsa, ajab emas. Zero, Alloh: «Albatta, Alloh O'ziga shirk keltirish (gunohi)ni kechirmagay va (lekin) ana shundan boshqa (gunoxlar)ni O'zi xohlagan bandalaridan kechirur...» (Niso,

48, mazmuni). Ammo men Allohning qaysi bandani mag'firat qilishni istashini va qaysi bandani mag'firat qilmasligini ham bilmayman.

**Shogird:**

- Ayting-chi ustoz, shoyad qotilni Alloh mag'firat qiladi va begonaga bir qaraganni azoblaydi deya olasizmi? Sizning nazaringizda afv umid qilishda ular ikkalasi ham bir xil darajada emasmi?

**Ustoz:**

- Agar Alloh qotilni mag'firat qiladigan bo'lsa, begonaga bir qaragan odam mag'firat qilinishga haqliroqdir. Agarda begonaga bir qaraganga azob bersa, qotil undan ko'ra ko'proq azoblanishga loyiqdir. Chunki Alloh: «Albatta, Alloh nazdida (eng azizu) mukarramrog'ingiz taqvodorrog'ingizdir...» (Hujurot, 13, mazmuni), degan. Begonaga bir qaragan kishi, odam o'ldirmagan bo'lsa, u qotilga nisbatan taqvodorroqdir. Endi sen aytganingdek, ularning umidvor bo'lish masalasiga kelsak, mening nazarimda ikkalasi teng emaslar. Menimcha, gunohi sag'ira qilgan gunohi kabira qilgandan ko'ra umidvorroq. Lekin men ikkalasining ham oxiridan qo'rqaman. Ammo men uchun gunohi kabira qilganning oqibati gunohi sag'ira qilganning oxiridan xatarliroq. Bunga qiyos keltiray. Ikki kishidan biri dengizga va ikkinchisi kichik daryoga tushdi. Men ularning ikkalasi ham suvga g'arq bo'lib ketishlaridan qo'rqaman va ikkalasining ham najot topishlariga umid qilaman. Ammo shunga qaramay, men kichik daryoga tushgan kishiga nisbatan, dengizga tushgan kimsaning g'arq bo'lishidan ko'proq qo'rqaman va dengizga tushgan kimsaga ko'ra kichik daryoga tushgan kimsaning najot topishiga ko'proq umidvor bo'laman. Xuddi shunga o'xshash, men gunohi kabira qilgan odamning taqdiridan ko'proq qo'rqaman. Garchi men ikkala gunohkorning mag'firat qilinishidan umidvor bo'lsam ham, va ularning amallariga qarab oqibatidan qo'rqsam ham, gunohi kabira qilganning oqibati gunohi sag'ira qilganning oqibatidan qo'rqinchliroq, gunohi sag'ira qilganning oqibati gunohi kabira qilganning oqibatidan umidliroqdir.

**Shogird:**

- Qiyosni juda yaxshi qildingiz, ustoz. Ayting-chi, gunohi kabira sodir qilgan kishining gunohi kechirilishini so'rash yaxshimi yoki uni la'natlab, duoibad qilgan yaxshimi? Siz qaysi birini ixtiyor etgan bo'lardingiz, uni la'natlagan bo'larmidingiz yoki unga istig'for aytarmidingiz? Bularning barini menga tushuntirib bering!

**Ustoz:**

- Allohga shirk keltirishdan boshqa hamma gunohlar ikki toifaga bo'linadi. Bu ikki toifadagi gunohlardan qaysi birini qilgan bandaning gunohi kechirilishini so'rab, uning haqqiga duoi xayr qilish afzaldir. Agarda uni la'natlasang, gunohkor bo'lib qolmaysan. Masalan, bir odam senga nisbatan ayb ish qilib qo'ysa, sen uning gunohidan kechib, uni la'natlamaganing albatta yaxshiroqdir. Shuningdek, bir odam Allohga gunoh ish qilib qo'ydi, ammo Unga shirk keltirmadi, unday odamga rahmdillik qilib, kalimai shahodatning hurmatidan unga mag'firat tilashing afzalroqdir. Agarchi, sen uning haqqiga duoibad qilib, ey Rabbim, uni gunohi uchun jazolagin deb iltijo qilsang, gunohkor bo'lib qolmaysan. Ammo u gunohkor bo'lmasa ham, ey Rabbim, uni jazolagin, desang, gunohkor bo'lib qolasan. Gunohkorga istig'for aytishingda ikki xislat bor. Biri shuki, u odam mo'min banda, ikkinchisi, sen gunohkor bandani Alloh azoblashini aniq bilmaysan. Agarda Alloh unga azob berishini aniq bilsang, u holda unga istig'for aytishing haromdir. Chunki Alloh azoblanishga

mahkum etilgan gunohkorga istig'for aytishni man' qilgan. Alloh azoblayman deganga mag'firat so'rash Allohning so'zini bajarmasligini tilash: ey Alloh, meni bir o'zimni o'ldirmagin, deyish kabidir. Chunki Alloh: «Har bir jon o'lim (achchig'i)ni totuvchidir...» (Oli-Imron, 185, mazmuni) deb marhamat qilgan.

Kalimai shahodat sharofati va hurmati yuzasidan kalimai shahodat keltirgan va unga iqror bo'lgan bandalar uchun istig'for aytish afzaldur. Allohga ibodatlar qilganida kalimai shahodatga iqrorlikdan ko'ra ortig'i yo'qdir. Yeru osmon va ular bag'ridagi narsalar oddida tuxum qanchalik kichik bo'lsa, barcha farz amallar kalimai shahodat oldida tuxumdan ham kichikroqdir.

Allohga shirk keltirish qanchalik katta gunoh bo'lsa, kalimai shahodat keltirish shunchalik katta savobdir. Alloh taolo biror yomon amal gunohini shirkning gunohini katta qilgandek katta etmagan: «...Allohga shirk keltirmagin! Chunki, shirk ulkan zulmdir» (Luqmon, 13, mazmuni) «Allohga chin ixlos qilib, Unga shirk keltirmagan holingizda (mazkur ishlarni bajaring). Kimki Allohga shirk keltirsa, bas, u go'yo osmondan qulagan va uni qushlar (o'lja qilib) olib ketgan yoki uni (qattiq) shamol yiroq joylarga uchirib ketgandekdir» (Haj, 31, mazmuni); «(Mushriklar): «Rahmon farzand tutdi», -- dedilar. (Ey, mushriklar,) sizlar shunday og'ir gap aytingizki, uning (og'irligidan) osmonlar yorilib, Yer bo'linib, tog'lar qulab, parchalanib ketayozur» (Maryam, 88—91, mazmuni). Alloh qotillik va undan kichik gunoxlar xususida buncha qattiq aytmagan.

### **Shogird:**

- Borgan sari, ey ustoz, suhbatingizga ishtiyoqim ziyoda bo'layotir. Alloh sizni barcha mo'minlar nomidan siylasin! Ularning yaxshilari va gunohkorlari to'g'risidagi so'zingiz, fikringiz va munosabatingiz, fazilatlarini bilishingiz, ularga mehribonligingiz juda go'zaldir. Ayting-chi, ustoz, ahyai qiblalar haqidagi fikru mulohazalarida adolat ahlining ba'zilari ba'zilardan afzalmi?

### **Ustoz:**

- Adolat ahllarining ummat hurmatini ulug'lashda so'zlari birdir. Biroq, ilmda, Allohning amrlarini ulug'lashdagi asosda, Unga duoyu iltijo qilishda, qiyinchiliklarni ko'tarishda, mo'minlarni fasod ishlardan himoya etishda, ularning hurmatini ulug'lash yo'lini izlashda va himoya etishda, adolat axllarining bir-biridan ortiq ekanliklari namoyon bo'ladi. Ular go'yo yurt boshiga dushman bostirib kelgan vaqtda bir bo'lib xalqni himoya qilishga otlangan askarlarga o'xshaydilar. Askarlar ham bir-biridan jang qilish va dushmanni qirish mahoratida, yovni yengish uchun hiyla ishlatishda, molu davlatlarini fido qilishda, yovga qarshi targ'ibu tashviqot ishlarida farq qiladilar.

### **Shogird:**

— Qasam ichamanki, ustoz, bu kabi qiyoslashni shu kunga qadar eshitgan emasman. Ayting-chi, gunohi kabira qilgan mo'min Allohning dushmani bo'ladimi?

### **Ustoz:**

- Mo'min odam Allohga shirk keltirmasa, har qancha gunoh qilsa ham, Unga dushman bo'lmaydi. Dushman esa o'z dushmanidan nafratlanadi va uni kamsitadi. Mo'min odam, biror gunohi kabira qilsa-da, Alloh unga barcha narsalardan aziz va sevimli zot bo'lib qolaveradi. Agar bunday odamga o'zini yoqib yuborish yoki Allohga yuraqdan tuhmat qilishdan birini tanlash ixtiyori berilsa, albatta, u o'zini o'tda yoqib yuborishni Allohga tuhmat qilishdan yaxshi ko'radi.

**Shogird:**

- Unga Alloh boshqa narsalardan suyukliroq bo'lsa, nega gunoh qiladi? Axir bir odam ikkinchi bir odamni yaxshi ko'rsa, uning buyrug'idan bosh tortmaydi-ku?!

**Ustoz:**

- Ha, farzand otani sevadi, ammo shunga qaramasdan unga sarkashlik qilishi mumkin. Mo'minga Alloh hammadan ham mahubdir. Agar u Allohga gunoh qilsa, bu shahvatning zohir va g'olib bo'lganidandir. Masalan, bir odam sulton huzurida xizmatchi edi. Sulton uni ishdan bo'shatdi va so'ngra unga azob berdi, qiynadi. Shunga qaramasdan, u, imkon berilsa, o'z ishiga qaytaveradi. Ayol ham tug'ish mashaqqatlariga qaramay, nifosdan forig' bo'lgach, yana farzand tug'ishni orzu qilaveradi.

**Shogird:**

- Shahvatning g'olib kelishi to'g'risida ma'lum so'zni aytdingiz. Juda ko'p obidlarni shahvat yengan. Odam, alayhissalom va Dovud, alayhissalom, ular jumlasidandirlar. Menga ayting-chi, ustoz, mo'min gunoh uchun azoblanishini bilgan holda gunoh qiladimi?

**Ustoz:**

- Mo'min odam gunoh uchun azoblanishini bilsa, gunoh qilmaydi. Ammo ikki sababga ko'ra gunoh ishga qo'l uradi: Birinchisi, u Allohdan mag'firat umid qiladi va ikkinchisi, u kasal bo'lishidan yoki o'lib qolishidan oldinroq Allohga tavba etishdan umid qiladi.

**Shogird:**

- Kishi azoblanishidan qo'rqqan narsaga ham qo'l uradimi?

**Ustoz:**

- Ha, kishi o'ziga zarar qiladigan ovqatga, suvga, jangga ham goho qo'l uradi. Unda dengizga tushganida g'arq bo'lmaslikka, jangga kirganida zafar qozonishga umid bo'lmaganida edi, u hech qachon jangga ham kirmas va dengizga ham tushmagan bo'lar edi.

**Shogird:**

To'g'ri aytdingiz, ustoz. Men buni shaxsan boshimdan o'tkazganman. Bir kun bir ovqatdan yeganimda qornim og'rib qoldi. Men uni iste'mol qilganimdan juda afsuslandim va o'sha ovqatni boshqa hech yemaslikka ahd qildim. Ammo keyinroq uni yana shunday ovqat keltirishganida sabrim chidamadi va uni yedim. Menga kufr haqida batafsil ma'lumot bering, ustoz. Uning nomi, izohi haqida so'zlab bering.

**Ustoz:**

- Kufrning nomi va sharhi bor. Uning sharhi; inkor etish, bo'yin tovlash va yolg'onga chaqirishdir. «Kufr» arabcha so'zdir. Arablar inkorga kufr nomini berganlar. Alloh Qur'oni karimni arab tilida nozil qilgan. Bir misol keltiraman. Bir odamning ikkinchi bir odamda dirhamlari bo'lsa, qarzini qaytarish muddati kelgach, uni kurganida, qarzga inkor bo'lib, to'lamasa, qarz bergan kishi uni «kofaraniy» demay, «motalaniy», ya'ni, u qarzini beradigan vaqtini o'tkazib yubordi, deydi. Agarda qarzdor qarzini mutlaqo inkor etib, uni rad qilsa, haqdor «motalaniy» demay, «kofaraniy» deydi. Shunga o'xshash, mo'min

odam biror farz amalni, uni inkor etmagan holda, tark etsa, u gunohkor deyiladi. Agarda u farz amalini mutlaqo inkor etgan holda tark etsa, Allohning farz amalini tark etuvchi kofir, deyiladi.

### **Shogird:**

- To'g'ri aytdingiz, ustoz. Kishi inkor etganligi sababli munkir, tasdiq qilsa, musaddiq, yomonlik qilsa, yomon, yaxshilik qilsa, yaxshi deyilishi ma'lum. Endi tavhidni bayon etib, men: «Muhammad alayhissalomni inkor qilaman», degan kishi haqida ayting.

### **Ustoz:**

- Biz bunday odamni kofir va Allohni taniyman, degan gapida yolg'onchi deymiz. Ularning Muhammad alayhissalomni inkor etishi Allohni inkor etishiga dalildir. Allohni inkor etgan shaxs Muhammad alayhissalomni inkor etadi. Nasroniylar Allohning yagonaligini inkor qilganidan, «Alloh uchtaning uchinchisi», deb gumon qiladilar. Ular Alloh bechora, xasis, Uzayr Uning bolasi, Uning shakli odam bolasiga o'xshaydi, deb gumon qiladilar. Otashparastlar va Oyu Quyoshga sig'inuvchilar ham ular kabidirlar. Alloh: «...Bizning oyatlarimizni faqat kofirlargina inkor qilurlar» (Ankabut, 47, mazmuni), «Bas, Rabbingiz haqqi, ular o'rtalarida chiqqan nizolarga Sizni hakam qilmagunlaricha va so'ngra chiqqan hukmingizdan dillarida tanglik sezmay, to'la taslim bo'lmagunlaricha, zinhor imon keltirmagaylar» (Niso, 66, mazmuni), degan. Biz, «Allohni taniyman, ammo Muhammad alayhis-salomni inkor qilaman», degan bandaning ushbu so'zini, uning Allohni inkor etishligiga dalil qilamiz. Uning gapi, ikki qafiz (ogirlik o'lchovi, bir qafiz taxminan o'n sakkiz kiloga teng) yukni ham ko'tara olmaydigan odamning yigirma qafizni Ko'tara olaman, deganidek gap. Biz bilamizki, ikki qafiz ko'tara olmaydigan banda, yigirma qafiz yukni mutlaqo ko'tara olmasligi oydek ravshan.

Agarda bir odam, Alloh haqligini bilaman, ammo inson yaratilganligiga men iqror emasman, desa, biz bilamizki, u o'z gumonida yolg'onchidir. Agarda u Allohni taniganida edi, Allohdan o'zga narsalar maxluqligini bilardi. Xuddi shuningdek, bir odam oldida bir xil masofada chiroq va gulxan bo'lsa va u, men chiroqni ko'ryapman, ammo gulxanni ko'rmayapman desa, biz uning yolg'onchiligini bilamiz. Chunki kichkinagina chiroqni ko'rgan odam katta gulxanni juda yaxshi ko'radi.

### **Shogird:**

- Javoblaringiz meni o'ta xushnud qildi. Ayting-chi, ustoz, bir odam Payg'ambarimiz alayhissalomga, «men sizning Allohning elchisi ekaningizni bilaman va shunga qaramay, sizni qatl qilishni xohlayman», desa nima bo'ladi?

### **Ustoz:**

- Bu kamsituvchilarda bo'ladigan muammo. Bunday bo'lishi ehtimoldan yiroq. U chindan ham Payg'ambarimiz alayhissalomning Allohning elchisi ekanliklarini bilsa, u zotni qatl etishni, o'limlarini va ularga ozor yetishini ham hech istamaydi. Bu bir odamning boshqasiga: «sen menga hamma odamlardan ko'ra ham suyuklasan, ammo men seni o'z qo'lim bilan o'ldirib, go'shtingni yeyishni istayman», deganiga o'xshab ketadi. Allohning yagonaligini tasdiq qilgan va Muhammad alayhissalomga imon keltirganlardan birortasi Rasulullohni besavod kambag'al bo'lganlar, deyishda u zotni ayblash yo kamsitishni xayollariga keltirmaydi. Kim Allohni va Muhammad alayhissalom Uning paygambari ekanliklarini bilsa, aslo u zot sha'nini kamsitadigan gapni aytmaydi. Alloh taolo Payg'ambarimizning martabalarini ulutlab, marhamat qiladi: «Kimda-kim

Payg`ambarga itoat etsa, demak, u Allohga itoat etibdi...» (Niso, 80, mazmuni). Zero, Alloh Payg`ambarimizni insonlarni jinlarning barchasiga yo`lboshchi va farzlariga omonatdor qilgan. Alloh taolo: «...Payg`ambar sizlarga keltirgan narsani olinglar, u sizlarni qaytargan narsadan qaytinglar va Alloqdan qo`rqinglar!..» (Xashr, 7, mazmuni), deb marhamat qiladi.

**Shogird:**

— Subhanalloh! Alloh Qiyomat kunida sizning yo`lingizni munavvar aylasin. Bir odam: «Allohn taniyman, lekin Uning bolasi bor bo`lishini istayman», desa qanday bo`ladi?

**Ustoz:**

- Hayhot va yana hayhot. Alloh boladan munazzahdir. Bu va yuqorida bergan savoling va ularga o`xshash savollar kamsituvchilarda bo`ladigan muammolardir. O`lik odam tush ko`radi, deb qanday ayta olasan. Allohning yagonaligiga ishongan kishi o`lik odamni tush ko`radi, demaganidek, Allohning bolasi bor, deyishni ham istamaydi.

**Shogird:**

- Qasam ichamanki, yuqoridagi savollar, siz aytganingizdek, kamsituvchilarda bo`ladigan muammolar. Juda bema`ni gaplar. Ayting-chi, bugungi nifoq avvalgi nifoq kabimi? Bugungi kufr avvalgi kufrdekmi? Nifoq qadimda qanday bo`lgan?

**Ustoz:**

- Ha, bugungi nifoq va bugungi kufr avvalgilaridek. Bugungi Islom ham avvalgi Islomdir. Senga avvalgi nifoq to`g`risida aytib beray. Avvalgi nifoq inkor etish, til bilangina iqror va tasdiq qilish, qalbda yolg`on deyish bo`lgan va bugungi nifoq ham shunday. Alloh Qur`oni karimda munofiqlarni shunday tavsif qilgan: «(Ey, Muhammad,) munofiqlar huzuringizga kelib: "Guvohlik beramizki, Siz, albatta, Allohning payg`ambaridirsiz", — derlar...» (Munofiqun, 1, mazmuni). Alloh munofiqlarning mazkur guvohliklari yolg`on ekanligini ta`kidlab: «Siz Uning payg`ambari ekanligingizni Alloh albatta bilur va Alloh munofiqlarning haqiqatan yolg`onchi ekanliklariga ham guvohlik berur» (mazkur oyatning davomi), deb marhamat qiladi. Ularni yolg`onchi deyish, aytganlari yolg`onligidan emas, balki tillari bilan aytganlari dillaridagi tasdiqlariga muvofiq bo`lmaganidandir. Baqara surasida Alloh munofiqlarning asl basharalari to`g`risida shunday degan: «Imon keltirgan kishilarga duch kelib qolganlarida: «Biz ham imon keltirdik», — deydilar. O`z shaytonlari (boshliqlari) bilan xoli qolganlarida esa: «Biz, albatta, sizlar bilan birgamiz, faqat biz (mo`minlarni) mazax qiluvchilarmiz, xolos», — deydilar» (Baqara, 14, mazmuni).

**Shogird:**

Qasamki, gaplaringiz to`g`ri, ustoz! Ayting-chi, Alloh odamlarni nega mo`minlar va kofirlar, deb atadi va biz ularni nega muminlar va kofirlar deymiz?

**Ustoz:**

- Alloh ularning qalblaridagi e`tiqodlari uchun mo`minlar va kofirlar deydi. Biz esa ularning tillari bilan iqror va tasdiq qilishlariga, yolg`on va soxta so`zlariga, kiyimlariga va ibodatlariga qarab ularni mo`min yoki kofir, deymiz. Masalan, bizga notanish xalqning masjidlarida qiblaga qarab namoz o`qiyotganiga shohid bo`lsak, ularni mo`minlar deb aytamiz va ularga salom beramiz. Ammo ular masihiylar yo yahudiylar bo`lishlari ehtimoldan xoli emas. Payg`ambarimiz alayhissalom davrlarida musulmonlar

munofiqlarni ham ularning tashqi va zohiran iqrora bo'lganlariga qarab, ular qalblaridagi yolg'on uchun Alloh e'tiborida kofir bo'lsalar ham, mo'minlar deb atayverganlar. Shuning uchun biz Alloh e'tiborida kofir bo'lganlarni ham yuzaki ko'rinishlariga qarab mo'minlar, boshqalarni esa qiyofasiga qarab, kofirlarning kiyim-boshini kiyib olgan bo'lsa, qalbida Allohni iqrora va tasdiq qilib, namoz o'qib yurishini bilmaganimiz uchun Alloh nazdida mo'min bo'lsa-da, kofir deymiz. Alloh bizni buning uchun jazolamaydi. Chunki Alloh bizga qalb ilmini va uning sir-asrorlarini bilishni yuklamagan. Bizga Alloh odamlarni mo'minlar, deb atashni, ularni sevishni, ularning zohiriy nojo'ya amallari uchungina ulardan nafratlanishni buyurgan. Alloh siru asrorlardan xabardor va ularni biluvchi zotdir. Alloh kiroman kotibiyn farishtalariga ham odamlarning zohiriy amallarini yozib borishga amr qilgan. Ularga ham qalb sari yo'l yo'q. Zero, qalb ishidan faqat Alloh xabardor, agar vahiy etilsa Paygambarlar ham vahiy orqali ularga xabar berilgan narsanigina biladi, xolos. Qalb ilmini vahiy etilmasdan bilishni da'vo qilgan banda, Allohning ilmini bilishni da'vo qilgan bo'ladi. Allohga xos bo'lgan qalb ilmi va shunga o'xshash ilmni bilaman, deb da'vo qilgan banda katta gunoh qilgan bo'ladi va u kofir va do'zaxiy bo'lishga mahkumdir.

### **Shogird:**

- Juda yaxshi gaplarni aytdingiz, ustoz! Endi ayting-chi, «irjo»ning asli va uning sharhi qanday bo'ladi, kim ishini «ta'xir», ya'ni «irjo'» qiladi?

### **Ustoz:**

- Irjo asli farishtalar tomonidan sodir bo'lgan. Ularga Alloh ashyolarni ko'rsatib: «Agar rostgo'y bo'lsangiz, ana u narsalarni nomlari bilan Menga aytib beringiz!» (Ba-tsara, 31, mazmuni) deb marhamat qilganida, ular asossiz gapirib, xato qilishdan qo'rqib, to'xtab qoladilar. Va birozdan so'ng: «Zoti poking haqqi, bizda O'zing bildirganingdan o'zga ilm yo'qdir. Albatta, Sen ilm va hikmat egasidirsan» deb javob qiladilar. Bilmagan narsasi to'g'risida so'ralgan odam, o'ylamasdan gapirib, adashsa, xatkor bo'lib, to'g'ri topsa, asossiz gapirganidan tahsinga sazovor bo'lmaganidek, farishtalar behuda gapirmadilar. Shuning uchun Alloh Payg'ambarimizga: «(Ey inson), o'zing (aniq) bilmagan narsaga ergashma!», ya'ni aniq bilmagan narsanishi so'zlama, «Chunki quloq, ko'z, til — bularning barchasi to'g'risida (har bir inson) mas'ul bo'lur (javob berur)» (Al-Isro, 36, mazmuni) deb marhamat etadi.

Alloh payg'ambariga bilmagan narsasi to'g'risida taxmin bilan so'zlashga, birovga adovat qilishga, tuhmat qilishga mutlaqo ruxsat bermagan. Afsuski, odamlar bir-birlariga nimalar qilmaydilar, bilmasdan, gumon bilan o'zgalarni ayblaydilar!

Agar sendan, sen bilmagan halol yo harom haqida so'rashsa, «Allohu a'lam bihi», ya'ni, uni Alloh bilguvchiroq-dir, desang tiyilgan bo'lasan. Va yana huzuringga uch kishi kelib, sen bilmagan va tajriba va qiyosda bilmagan hadis haqida so'rashsa, uni bilishni Allohga havola etsang, vuquf qilgan bo'lasan.

«Irjo'»ning sharhi: Tasavvur qilgin, sen bir tinch va xotirjam qabila ichida eding. Ularni shu holatda tark etding. Keyinchalik eshitib qoldingki, ular ikki toifaga bo'linishib, bir-birlari bilan urushib ketibdilar.

Bu noxush xabarni eshitib, sen yana ularning oldiga bording. Ko'rdingki, ular eski holatdagidek bir-birlari bilan inoqlikda yashayotgan ekanlar. Lekin urush natijasida qurbonlar berilganiga shohid bo'lding. Bu to'g'risida ikki tomondan ham so'rab-surishtirding. Ikki tomon ham o'zlariga zulm qilinganini ta'kidladilar. Ularning qaysi biri haq, qaysi biri nohaq ekanligini isbotlash uchun esa birorta ham guvoh yo'q. Ular bir-birlari bilan xusumatda bo'lganlari sababli, ularning bir-birlariga nisbatan bergan

guvohliklari ayblash uchun asos bo'la olmaydi. Shu vaziyatda sen u ikki tomonning birortasini jabrlangan va boshqasini zulmkor, demay turishing lozim. Ammo ularning ikkalasi ham haq emasligini bilishing kerak. Chunki bir-birini o'ldirganligi bois ularning ikkalasi ham xato qilgan yoki biri haq va ikkinchisi nohaq bo'lishi mumkin. Shunda jinoyat qilgan tomonni do'zaxiy yo jannatiy, demay turishing «irjo'» deyiladi.

Barcha odamlar, bizning fikrimizcha, uch darajaga bo'linadilar:

Birinchi daraja - Payg'ambarlar jannatiydirlar va payg'ambarlar jannatiy deganlar ham jannatiy;

Ikkinchi daraja - mushriklar, ularni do'zaxiy deb shahodat berasan;

Uchinchi toifa - muvahhidlar. Ularni Jannat ahli yo Do'zax axli deyishdan tiyilasan.

Lekin biz ularga yaxshilikni umid qilamiz, oqibati yomon bo'lishidan ham qo'rqamiz. Ular haqida Alloh taolo-ning: «...Yaxshi ishni boshqa — yomoniga aralashtirib yuborganlar. Alloh ularning tavbalarini shoyad qabul qilsa...» (Tavba, 102, mazmuni), deb marhamat qilganini aytamiz.

Biz ular uchun yaxshilikni umid qilamiz. Zero, Alloh istagan bandasining shirkdan bo'lak gunohini kechiradi, gunohlari va xatolari sababli ularning oqibatidan qo'rqamiz.

Shogird: - Muncha ham adolatli, muncha ham tushunarli va muncha ham haqiqatga yaqin bo'lgan so'zlar! Ayting-chi, ustoz payg'ambarlar va ular aytganlardan boshqa namoz o'qiydigan, ro'za tutadigan odamni ko'rib, uni Jannatga kiradi, deya olasizmi?

**Ustoz:**

- Yo'q.

**Shogird:**

- Siz odamlarning: «Mo'min zino qilsa, boshidan imonini ko'ylagini yechganday yechib tashlaydi va tavba qilsa, uning imoni qaytariladi», degan rivoyatlarini tasdiqlaysizmi yoki unga shubha bilan qaraysizmi? Agar bunday so'zni tasdiqlasangiz, xavorijlarning so'ziga qo'shilasiz. So'zlariga shubha qilsangiz, xavorijlarning asliga shubha qilib, aytgan haqiqatingizdan qaytgan bo'lasiz. Agarda ularning so'zini yolg'onga chiqarsangiz ular sizga, Payg'ambarimiz so'zlarini rad qilyapsan, deydilar. Chunki ular rivoyat qilgan gap roviylarining silsilasi Payg'ambarimiz alayhissalomgacha borib yetadi.

**Ustoz:**

- Men xavorijlarni yolg'onchilarga chiqaraman. Ularni yolg'onchiga chiqarishim va ularning so'zlarini rad qilishim aslo Payg'ambarimiz alayhissalomni yolg'onchiga chiqarish, degan ma'noni anglatmaydi. Payg'ambarning so'zlari yolg'on deyman degan kimsagina Payg'ambarimiz so'zlarini yolg'onga chiqargan bo'ladi. Ammo odam, men Payg'ambarimiz alayhissalomning barcha so'zlariga ishonaman, lekin u zot noto'g'ri va Qur'onga xilof gap aytmaganlar, desa, bu uning Payg'ambarini va Qur'onni tasdiq etishi va Payg'ambarimiz Qur'onga xilof qilmaganlar deyishi bo'ladi. Mabodo, u zot Qur'on oyatlariga zid biror narsa deganlarida yoxud Alloh taologaga nisbatan nohaq so'z aytganlarida, Alloh ularni jazolamasdan qo'ymas edi. Chunki Alloh taolo: «Agar (payg'ambar) Bizning nomimizdan (Biz aytmagan) ba'zi so'zlarni to'qib aytganida edi, albatta, Biz uning o'ng qo'lidan tutgan, so'ngra uning shohtomirini uzib tashlagan bo'lar edik. U holda sizlardan biror kishi undan (payg'ambaridan halokatni) to'sa oluvchi bo'lmas edi» (Al-Haaqqa, 44—47, mazmuni), deb marhamat qilgan. Allohning payg'ambari hech qachon Uning kitobiga xilof qilmaydi. Allohning kitobiga xilof qilgan Uning payg'ambari bo'lmaydi. Ularning rivoyati Qur'onga xilofdir. Chunki, Alloh

taolo Qur'onda zinokor erkak va fohisha ayol deb nomlab, ulardan imonni rad etmadi. Alloh shunday marhamat qiladi: «Sizlardan o'sha (zinokorlik)ni qilganlarning ikkisi (erkak va ayol)ga...» (Niso, 16, mazmuni). Bu oyatdagi «sizlardan» so'zida mo'minlar nazarda tutilmoq-da. Nasroniylar yoki yahudiylar nazarda tutilmagan.

Ko'rib turibsanki, biz dalil asosida xavorijlarning so'zlarini rad qilmoqdamiz. Qur'oni karimga xilof hadisni Payg'ambardan deb aytayotgan kishini qaytarish Payg'ambarimizni qaytarish yoki u zotni yolg'onchiga chiqarish degan gap emas, balki, uning Payg'ambardan deb gapirgan botil va tuhmat so'zini rad etishdir. Bunday odamning raddiyasi zinhor Payg'ambarimiz alayhissalomga qaratilgan emas.

Biz Payg'ambarimizdan eshitgan va eshitmagan hamma hadislarni bosh ustiga qo'yib qabul qilamiz, ularga ishonamiz va Payg'ambar aytgandayligiga iqromiz. Payg'ambar, Alloh qaytargan biror narsani buyurmaganligiga, Allohning buyruqlaridan birorta narsani tushirib ham qoldirmaganligiga, Alloh tavsif qilgan narsani boshqacha qilib tavsif qilmaganliklariga, barcha ishda Allohga muvofiq bo'lganliklariga, Payg'ambarimiz alayhissalom Alloh aytmagan narsani Alloh aytgan deb ichlaridan to'qib chiqarmaganliklariga, Allohning buyrug'isiz biror o'zgarish qilmaganliklariga, soxtakor bo'lmaganliklariga iqromiz. Shuning uchun, Allohtaolo: «Kimda-kim Payg'ambarga itoat etsa, demak, u Allohga itoat etibdi...» (Niso, 80, mazmuni), deb marhamat qiladi.

### **Shogird:**

- Yaxshi tushuntirib berdingiz, ustoz. Odamlarning: «ichkilik iste'mol qiluvchi bandaning namozi qirq kun qabul bo'lmaydi», degan gaplariga nima deysiz? Ezgu va solih amallarni nima yo'q qiladi?

### **Ustoz:**

Men ularning: «ichkilik ichuvchining namozini Alloh qirq kecha-kunduz qabul qilmaydi», degan so'zlarini izohlab bera olmayman. Uni haqiqatga mos ravishda tushuntirib bermas ekanlar, men ularni yolg'onchi, deyman. Alloh gunoh qilgan bandani jazolashi yoki uni avf qilishi, qilmagan gunohi uchun jazo bermasligi, bandaning qilgan ibodatlarini hisobga olib qo'yganidek, uning gunohlarini ham bo'yniga yozib qo'yishi Uning adolatidan ekanligini bilamiz. Masalan, bir odam molining zakotidan berishi lozim bo'lganini to'la bermay, uning 50 dirhamini bersa, Alloh mazkur bandani bermagan zakoti uchun, uning miqdoricha jazolaydi, ammo uning zakotini bergan qismini savobini uning hisobiga yozib qo'yadi. Yoki bir odam ro'za tutsa, namoz o'qisa, hajga borsa va qotillik qilsa, yaxshi amallari uning hisobiga, yomon amali ham uning bo'yniga yoziladi. Alloh taolo:

«...Uning kasb etgani (yaxshiligi) — o'ziga, va orttirgani (yomon amali) ham o'zigadir...» (Baqara, 286, mazmuni);

«Albatta, Men sizlardan amal qiluvchilarning — xoh erkak bo'lsin va xoh ayol bo'lsin — amalini zoe qilmasman...» (Oli Imron, 195, mazmuni);

«...biz yaxshi amal qiluvchilarning ajrini zoe qilmagaymiz» (A'rof, 170, mazmuni);

«...sizlar faqat o'zlaringiz qilib o'tgan amallaringizga qarab taqdirlanursizlar» (Yosin, 54, mazmuni);

«...sizlar faqat o'zlaringiz qilib o'tgan qilmishlaringiz jazosini olursizlar» (Tur, 16, mazmuni);

«Bas, kimki dunyoda zarra miqdoricha yaxshilik qilgan bo'lsa, (Qiyomat kuni) uni ko'rar. Kimki zarra miqdoricha yomonlik qilgan bo'lsa, uni ham ko'rar» (Zalzala, 7—8, mazmuni) deb marhamat qilgan.

Alloh taolo eng kichik yaxshilikni ham, yomonlikni ham hisob qiladi: «Biz Qiyomat kuni uchun adolatli tarozilar qo'yurmiz, bas, biror jonga zarracha zulm qilinmas. Agar xantal

(o'simligi) urug'idek (yaxshi yoki yomon) amali bo'lsa ham, o'shani keltirurmiz! Biz o'zimiz yetarli hisob-kitob qiluvchidirmiz» (Anbiyo, 47, mazmuni).

Bularga zid gapirgan kimsa yolg'on so'zlagan, Allohni adolatsizlik va zulm bilan tavsif qilgan bo'ladi. Shubhasiz, Alloh bandalarni zulm va adolatsizlikdan omon etgan zotdir. U o'zini Shakuur, deb atagan. Chunki Alloh bandalarga solih amal qilganlari uchun ajr beradi. U eng mehribon Zotdir. Solih amallarning savobini uch narsadan bo'lak hech narsa yo'qqa chiqarmaydi: Allohga shirk keltirish. Chunki Alloh: «Kimki, imondan kufrga qaytsa, (qilgan savobli) ishi, albatta, zoe bo'lur...» (Moida, 5, mazmuni), degan. Minnat qilish. Odam Allohning rizoligi uchun qul ozod qilsa yoki do'st-birodarlik, qarindosh-urug'chilik rishtasiga rioya qilsa yoki sadaqa qilsa-yu, so'ng achchig'i chiqqan vaqtida yoki odatiy paytda yaxshilik ko'rsatgan birodariga: men seni ozod qilganman, yoki silai rahm qilgan kishisiga: men seni qarindoshim, deb yordam qo'limni cho'zib yurardim, yoki sadaqa bergan kishisiga: men senga ehson bergandim desa, u qilgan xayrli ishlarning savobi yuziga uriladi. Zero, minnat qilishlik va ozor berishlik bilan amallarning savobi yo'q bo'ladi. Riyo — odamlarga ko'z-ko'z qilish uchun amalga oshirilgan solih ishlarni Alloh qabul etmaydi.

Ushbu uch xil narsadan boshqa qilmishlar xayrli ishlarning savobini yo'q qilmaydi.

### **Shogird:**

- Gaplaringiz o'ta adolatli tavsiflardandir. Ayting-chi, ustoz, bir odam sizni kufrda ayblasa, siz unga nima degan bo'lar edingiz?

### **Ustoz:**

— Unday odam yolg'onchidir. Men uni kofir deb atamayman, yolg'onchi deyman. Chunki ikki xil hurmat bor: Alloh hurmati va banda hurmati. Shirk keltirish, kufr keltirish, Allohni yolg'onchiga chiqarish Alloh hurmatini to'kishdir. Bir-biriga zulm qilish bandalar hurmatini to'kishdir. Alloh va Uning Payg'ambarini yolg'onchiga chiqarayotgan bandani meni yolg'onchiga chiqarayotgan odam bilan tenglashtirmayman. Zero, Alloh va Uning Payg'ambarini yolg'onchi deyuvchining gunohi barcha odamlarni yolg'onchi deyuvchining gunohidan og'irdir. Meni kufrda ayblayotgan banda mening nazdimdagina yolg'onchidir. Uning yolg'on so'zi uchun unga yolg'on aytishim durust bo'lmaydi. Chunki Alloh: «...biror qavm (kishilari)ni yoqtirmaslik sizlarni adolatsizlik qilishga undamasin! Odil bo'lingiz! Zero, u (adolat) taqvoga yaqinroqtsir...» (Moida, 8, mazmuni), «Biror qavmga nisbatan bo'lgan adovat zinhor ular o'rtasida adolatni tark etishingizga sabab bo'lmasin!» - degan.

### **Shogird:**

- To'g'ri, ustoz. Marhamat qilib ayting-chi, bir odam o'zini o'zi kofirman desa, bu holda siz nima degan bo'lar edingiz?

### **Ustoz:**

- Bunday odamning o'zini aldashini tahqiq qilish menga lozim emas, deyman. Agarda u o'zini eshak desa, men rost gapirdi, deyishim kerak emas. Mabodo u, men Allohni e'tirof etmayman, Uning payg'ambarini ham tan olmayman va unga ishonmayman deb, o'zini mo'minman desada, uni kofir deb atayman, shuningdek, Allohni bir deb bilaman, U tomonidan nozil etilganlarga imon keltirganman deb, o'zini kofirman desa ham, uni mo'min deb atayman.

**Shogird:**

- Ustoz, u odamning o'zidan ko'ra ham unga nisbatan yaxshi gapni aytdingiz. Siz haqsiz. Agarda u sizga, men sening diningni inkor qilaman, shuningdek, sening ma'budingga munkirman desa, nima degan bo'lar edingiz?

**Ustoz:**

— Agarda shunday desa, men unga javob qaytarishga shoshilmagan bo'lar edim. Men undan: sen Allohning dinidan yuz o'girdingmi yoki Uning o'zidanmi, deb so'ragan bo'lar edim. Agarda u mazkur ikki savolning qaysi biriga bo'lsa ham, ha, deb javob bersa, uni men mushrik kofir, deb atagan bo'lar edim. Mabodo u, men Allohdan ham, Uning dinidan ham bo'yin tovlamayman, men faqat sening diningdan yuz o'giraman, zero, dining kufr dini va sen sig'inayotgan ilohingdan yuz o'giraman, chunki sen shaytonga sajda qilasan, desa men uni kofir deb atamayman. Chunki u shaxsan menga nisbatan yolg'on so'zlamogda.

**Shogird:**

Qasam ichamanki ustoz, bu aytganlaringiz taqvo ahlining so'zlaridandir. Ayting-chi, shaytonga itoat etgan va uning xohishini istagan kimsa kofir va shaytonga sig'inuvchi emasmi?

**Ustoz:**

- Bu savoling bilan nima demoqchiligingni bilasanmi?! Mo'min Allohga bo'ysunmasa, bu bo'ysunmasligi bilan, agar amali shayton toati va xohishiga muvofiq kelsa, shaytonga itoat qilgan va uning xohishini istagan va qasd qilgan bo'lmaydimi?

**Shogird:**

- Ustoz, ibodat o'zi nima, uni qanday izohlab berasiz?

**Ustoz:**

- «Ibodot» so'zi toat, rag'bat va Parvardigorga iqrorlik ma'nolarini o'zida jam qilgan. Bu shunday: kishi Allohga imonda itoat etsa, uning qalbiga Allohning mag'firatidan umidvorlik va Unga gunoh qilishdan qo'rqish kiradi. Qalbida ushbu uch xislat bor banda Allohga ibodat qiladi. Kishida Allohdan umidvorlik va qo'rqish bo'lmasa, mo'min bo'lmaydi. Ammo bir mo'minning Allohdan qo'rqishi kuchli, boshqasini kam bo'lishi mumkin. Shuningdek, Allohdan o'zga narsaga, undan savob istab yo azobidan qo'rqib, itoat qilgan inson o'sha narsaga sig'ingan bo'ladi, Allohga emas. Agarda har narsaga itoatning o'zigina ibodat bo'lganida, Allohdan boshqaga itoat etgan kishi unga ibodat qilgan bo'lar edi.

**Shogird:**

- Yaxshi so'zlarni aytdingiz, ustoz! Ayting-chi, kishi Allohdan boshqa bir narsadan qo'rqsa yoki undan biror manfaat umid qilsa, u kofir bo'lib qoladimi?

**Ustoz:**

- Qo'rqish va umid qilish ikki xil bo'ladi:

1. Bir odam boshqa bir odamdan, Allohning irodasisiz zarar yo foyda qila oladi, deb qo'rqsa yo umid qilsa, bunday odam kofirdir.
2. Bir odam Allohdan umid qilib yo qo'rqib, boshqa bir odamdan umid qilsa yoki undan

qoʻrqsa, Alloh unga boshqaning qoʻlidan yo bir narsa sababidan ziyon yetkazishidan xavfsirasa, kofir boʻlmaydi. Chunki ota farzandining unga yaxshilik qilishidan, tuyakashning tuyasi uning molini tashib berishidan, qoʻshni qoʻshnisining unga yaxshilik qilishidan, sulton oʻzining himoya qilinishidan umid qiladi. Bu bilan ularning qalbiga kufr kirib qolmaydi. Chunki ularning umidlari Allohdir, Oʻgʻlining va qoʻshnisining yaxshilik qilishini Allohdan umid qiladilar. Allohdan shifo berishini umid qilib, dori ichgan bemor kofir boʻlib qolmaydi. Alloh azobiga duchor boʻlib qolishdan qoʻrqib, yomonlikdan qoʻrqiladi va undan qochiladi. Bularni Muso alayhissalomning hatti-harakatlariga qiyoslash mumkin. Alloh uni paygʻambarlikka tanlab oldi va unga kalomini bevosita yetkazdi. Ammo shunga qaramasdan u: «Bas, meni oʻldirib qoʻyishlaridan qoʻrqaman», dedi (Shuaro, 14, mazmuni). Yoki Paygʻambarimiz alayhissalomni olaylik. U zot qoʻrqanlaridan Hiro gʻoriga qochib kirib oldilar. Bu holatlarda na Muso alayhissalom va na Paygʻambarimiz, sallallohu alayhi va sallam, qalblariga kufr doxil boʻlmadi. Shunga oʻxshash odamlar yirtqich hayvondan, ilonu chayondan, uyning qulashiyu yoʻlning oʻpirilib ketishidan yoki oziq-ovqatga tushib qolgan zaharning zarar keltirishidan tabiiy holda qoʻrqadilar. Ammo ularning qalblariga kufr kirmaydi, ammo qoʻrqinch kiradi.

### **Shogird:**

- Aytganlaringizni angladim, ustoz. Endi Allohdan qoʻrqmay, ammo maxluqlardan qoʻrqadigan moʻmin toʻgʻrisida nima deysiz?

### **Ustoz:**

- Moʻmin hech narsadan Allohdan qoʻrqqanidan ortiq qoʻrqmaydi. Chunki Alloh uning badaniga biror azob beradigan dard yetkazsa ham yoki boshiga ogʻir musibat tushirsa ham, ey Alloh, menga bergan dardu musibatlarining nega shunchalar yomon, deb olamga dod solmaydi va hatto oʻziga-oʻzi past ovozda ham gapirmaydi. Aksincha, u Alloh zikrini koʻproq qila boshlaydi. Agar shunday falokatlarning oʻndan biri unga dunyo sultonlaridan biri tomonidan yetkazilsa, gapini sultonga yetkazmaydigan ishonchli odamlar oldida tili bilan sultonning zolimligini aytgan boʻlardir.

Moʻmin banda hech kim yoʻq kimsasiz joyda ham, odam-lar orasida ham, pinhona ham, oshkora ham, issiqda ham, sovuqda ham Allohdan qoʻrqadi. Dunyo sultonlaridan na shodlik va qaygʻuda, na pinhon va oshkora qoʻrqiladi. Ma-salan, unga sovuq tunda janobat yetsa, garchi Allohdan oʻzga hech kim uning junub boʻlganini bilmasa-da, oʻzini zoʻrlab boʻlsa ham, oʻrnidan turadi va Undan qoʻrqqanligi uchun gʻusl qiladi. Moʻmin jazirama issiq kunlari chanqoqlik azobini tortsa ham, uni birov koʻrib turmayotgan boʻlsa ham, Allohdan qoʻrqqanidan, roʻza tutadi, sabr qila-di, besabrlik qilmaydi.

Kishi dunyo sultonlari oldidagina ulardan choʻchiydi va qoʻrqadi, ular goyib boʻlgach, unda qoʻrquvdan asar ham qolmaydi. Demak, moʻmin uchun Allohdan qoʻrqishdan ortiqroq qoʻrquv boʻlmas ekan.

### **Shogird:**

- Ont ichamanki, ustoz, biz boshimizdan kechirganlarni soʻzlab berdingiz. Endi imon va kuforni bilmaslik toʻgʻrisida nima deysiz?

### **Ustoz:**

- Odamlar Parvardigorni bilishlari va tasdiq qilishlari bilan moʻmin boʻladilar va Uni inkor etish bilan esa kofir boʻladilar. Agar ular Allohning maʼbud Zot ekanligiga iqror boʻlsalar va Uning yakkayu yagona ekanligini va U tomonidan kelgan narsalarni tasdiq qilsalar, imonning yaxshiligini va kufurning yomonligini bilgach, imon va kufurning nomlarini

bilmasalar, kofir bo'lmaydilar. Masalan, bir odamga asal va aloe taqdim qildilar va u ularni totib ko'rib, asal shirin va aloe achchiq ekanligini bildi, ammo u ularning nomlari nimaligini bilmaydi. Bunday odamni shirin va achchiqni ajrata olmaydigan demaymiz, balki uni asal va aloelarni nomlarini bilmagan, deymiz. Shunga o'xshash, imonning yaxshiligini va kufri yomonligini bilgan, ammo ularning nomini bilmagan odamni Allohni bilmas ekan, demaymiz, balki uni imon va kufri so'zlarining nomini bilmas ekan, deymiz.

### **Shogird:**

- Mo'min azoblansa, unga imoni foyda beradimi? U imonga kelganidan keyin ham, imoni bo'laturib, azoblanadimi?

### **Ustoz:**

- Sen mendan ilgari so'ralmagan masalalar haqida so'ramoqtsasan. Inshaalloh, savolingga javob beraman.

Mo'min odam imoni bo'lib, azoblansa, ha, unga imoni foyda beradi. Uning imoni bois undan eng qattiq azob ko'tariladi. Eng qattiq azobga esa kofir duchor qilinadi. Chunki, kufirdan ko'ra ham kattaroq gunoh yo'q. Mazkur mo'min Allohga kufri qilgani yo'q, balki Uning ba'zi buyruqlarini bajarmay, gunoh qilgani uchun Alloh uni qilgan gunohiga yarasha azoblaydi. Ammo qilmagan gunohi uchun Alloh uni azoblamaydi. Masalan, bir kishi odam o'ldirdi, ammo o'g'irlik qilmadi. U qotilligi uchungina azoblanadi, o'g'irlik uchun emas. Zero, Alloh: «Qilgan qilmishlaringiz uchun jazolanasiz», deb ta'kidlagan. Ma'lumki, bemorning dardi oz bo'lsa, unga yengil bo'ladi. Qilgan qilmishi uchun bu dunyoda azoblansa, u qattiq azobdan ozod etilgandir. Bir tur azob bilan azoblanadiganga ikki tur azob bilan azoblanadigan odamdan ko'ra yengilroqdir.

### **Shogird:**

- Qasamki, bu haqiqatdan ma'lum, ustoz. Ayting-chi, kofirlarning ibodatlari ko'p va turli bo'lgan holda, kufirda bir xil bo'lib qolishlari nimadan?

### **Ustoz:**

Kofirning kufri bir, ibodatlari ko'p va turli bo'lishi Yeru osmon ahllarining imonlari bir, ammo ularning farz amallari ko'p va turli-tuman bo'lganidandir. Masalan, farishtalarga farz bo'lgan narsalar bizga buyurilgan farzlardan ko'ra boshqacharoq. Shuningdek, bizdan ilgari o'tgan Bani Odamlarga farz bo'lgan amallar bizga farz bo'lgan amallardan farq qiladi. Ammo farishtalarning va oldingilarning va bizlarning imonlarimiz bir xildir, barchamiz yolg'iz va yagona Allohga imon keltirganmiz, tanho Unga bandachilik qilganmiz va U tomonidan kelgan barcha narsalarni tasdiq etganmiz. Shunga o'xshash kofirlarning ham kufri va inkori bir xil. Ammo ularning sifatlari ko'p va turlicha. Masalan: yahudiyga kimga sig'inasan, desang, u, Allohga, deb javob beradi. Alloh haqida so'rasang: U Uzayrning otasi va inson qiyofasida, deydi. Kim shu fikrda bo'lsa, Alloh taologa imon keltirgan bo'lmaydi. Agar nasroniydan: kimga sig'inasan, deb so'rasang, u, Allohga sig'inaman, deydi. Undan Alloh taolo haqida so'rasang: U Isoning jasadida, Maryamning qornida, narsaga yashiringan va uni qamragan, unga singgan, deydi. Bunday savolni majusiyga bersang, u ham: Allohga sig'inaman, deydi. Undan Alloh haqida so'rasang, Uning sherigi, bolasi va xotini bor, deb javob qiladi. Bunday e'tiqoddagi odam, albatta, mo'min emas. Bu odamlarning barchasining Allohni tanimasligi va Uni inkor etishi bir xil. Ammo ularning ibodatlari va tavsiflari ko'p va turlichadir.

Ularni quyidagi uch nafar odamga qiyoslash mumkin. Ulardan biri: — Menda dunyoda

o'xshashi yo'q marvarid bor, — dedi va qora uzum donini chiqarib qo'ydi va uning marvarid ekanligini isbot qilish uchun ont ham ichdi va odamlar bilan bahslasha boshladi. Ulardan ikkinchisi: Menda bahosi eng yuqori bo'lgan marvarid bor, dedi-da yonidan behini chiqarib qo'ydi va birinchi odam kabi harakat qildi. Navbat uchinchi odamga keldi va u: Menda dunyoda yakkayu yagona bo'lgan marvarid bor, - deb, bir parcha quritilgan loyni o'rtaga qo'ydi va u ham chiqargan narsasi marvarid ekanligiga ont ichdi va odamlar bilan shu xususda bahsu munozara qildi.

Ushbu misoldan mazkur uch nafar odamning marvaridni bilmaslikda va tanimaslikda bir xil nodonliklari namoyon bo'ldi. Ularning birortasi ham umuman marvarid nima ekanligini bilmaydi. Ularning sifatlari ko'p va turli-tuman. Bu sening ular sifatlagan «ma'budlariga» sig'inmasliging bilan bilinadi. Chunki ular «ma'budlarini» ikkita, uchta deydilar va sifatlaganlariga sig'inadilar. Sen esa ma'budingni bitta deysan va bittaga sig'inasan. Demak, sening ma'buding ularnikidan boshqa va ularning «ma'budlari» senikidan boshqadir. Shuning uchun Alloh taolo: «(Ey, Muhammad,) ayting: «Ey kofirlar! Men sizlar ibodat qilayotgan narsaga ibodat qilmasman. Sizlar ham men ibodat qiladigan (Alloh)ga ibodat qiluvchi emassizlar»» (Kofirun, 1—3, mazmuni), degan.

### **Shogird:**

— Siz tavsif qilganingizni bilib oldim. Alloh Rabbimiz deya turib, Allohni bilmaydiganlar, Uni tanimaydiganlar qaerdan paydo bo'ladi, ustoz?

### **Ustoz:**

— Ularning «Rabbimiz Allohdir», deyishlarini bilaman. Ular shunday desalar ham, Allohni bilmaydilar. Chunki, Alloh shunday deb xabar bergan: «Qasamki, agar ulardan: «Osmonlar va Yerni kim yaratgan?» - - deb so'rasangiz, albatta, «Alloh», — derlar. Siz «Allohga hamd!»— deng. Yo'q, ularning aksariyati (haqiqatni) bilmaslar» (Luqmon, 25, mazmuni). Bu oyatdan ko'rinib turibdiki, «Alloh — Rabbimiz» deydiganlarning ko'pchiligi uni bilmasdan, tushunmasdan aytadilar. Ular onasidan ko'r tug'ilib, tun va kun, sariq va qizil to'g'risida bilmay gapirayotgan bolaga o'xshaydi. Xuddi shunday kofirlar ham Alloh taolo nomini mo'minlardan eshitib, Uni bilmay, eshitganlarini gapiraveradi. Bu xususda Alloh: «Ilohingiz yagona iloxdir. Bas, oxiratga imon keltirmaydiganlarning dillari (Uning yagona ekanligini) inkor qilur va ular mutakabbirdirlar» (Nahl, 22, mazmuni), degan.

### **Shogird:**

- To'g'ri vasf qildingiz, ustoz. Siz o'zingiz Payg'ambarimiz alayhissalomni Alloh orqali taniganmisiz yoki Allohni Payg'ambarimiz orqali taniganmisiz? Agarda siz u zotni Alloh orqali taniganman, desangiz, bu qanday bo'ladi? Axir Allohga bizni Payg'ambarimiz (s.a.v.) da'vat qiladilar-ku?!

### **Ustoz:**

- Ha, biz Payg'ambarimiz alayhissalomni Alloh orqali taniymiz. Alloh mo'minlar qalbiga Payg'ambarimizni (s.a.v.) bilish va tasdiq qilish tuyg'usini solmaganida edi, garchi Rasululloh Allohga da'vat qilsalar ham, hech kim u zotning aytayotganlari haq ekanini bilmas edi. Shuning uchun Alloh: «(Ey, Muhammad!) Siz o'zingiz suygan kishilarni hidoyat qila olmaysiz, lekin Alloh O'zi xohlagan kishilarni hidoyat qilur...» (Qasas, 56, mazmuni), degan.

Allohni tanish Rasululloh (s.a.v.) orqali bo'lganida, odamlarga Allohni taniganlari uchun Raululloh minnat qilardilar. Lekin Alloh taolo Rasulullohga O'zini tanitgani uchun odamlarga Rasulllohni (s.a.v.) tasdiq qilishni o'rgatgani uchun minnat qiladi. Shuning

uchun bandaning: «Allohni payg`ambar orqali tanidim», deyishi mumkin emas, balki «banda, har bir yaxshilikni faqat Alloh orqali biladi», deyishi lozim.

**Shogird:**

- Meni juda xushnud etdingiz, ustoz! Endi «viloyat» va «baroat» so'zlarini izohlab bersangiz. Bu ikki xislat bir odamda jam' bo'ladimi?

**Ustoz:**

- «Viloyat» — yaxshi ishga rozi bo'lishlik, «baroat» esa yomon ishdan nafratlanish demakdir. Bu ikki xislat bir odamda jam' bo'lishi ham va jam' bo'lmasligi ham mumkin. U ikkisi jam bo'ladigan inson yaxshi ishni ham, yomon ishni ham qiladigan mo'mindir. Sen uning yaxshi ishni qo'llab, uni qilgani uchun yaxshi ko'rasan. Uning yomon ishiga qarshilik qilasan va buning uchun uni yomon ko'rasan. Bu viloyat va baroat bir odamda jam' bo'ladimi, degan savolinga javob. Kofirda hech qanday yaxshilik yo'q. Sen uni yomon ko'rasan va undan barcha ishda uzoq yurasan. Sen yaxshi ko'radigan va hech yomon ko'rmaydigan inson hamma solih ishlarni qiladigan, yomon amallardan o'zini saqlagan mo'min kishidir. Sen uning hamma narsasini yoqtirasan, undagi biror narsani yomon ko'rmasan.

**Shogird:**

Muncha ajoyib so'zlarni aytdingiz, ustoz! Endi menga kufroni ne'mat haqida gapirib bering!

**Ustoz:**

- Kufroni ne'mat kishining ne'matlar Alloh tomonidan ekanligini inkor etishidir. Ne'matlardan birortasini inkor qilib, ular Alloh tomonidan emas, degan banda Alloh ne'matlarini inkor qilgan bo'ladi. Zero, Allohni inkor qilgan kimsa, Uning ne'matlarini inkor qiladi. Chunki, Alloh taolo: «(Ular) Allohning ne'matini taniydilar, keyin esa uni inkor etadilar...» (Nahl, 82, mazmuni), degan. Kofirlar tunni tun, kunni kun deydilar, sihat-salomatlik, boylik va rohatu farog`atda yashashlari ne'mat ekanligini biladilar, biroq ular mazkur ne'matlarni haqiqiy xojasi Allohga emas, balki o'zlarining «ma'budlariga» nisbat beradilar. Shuning uchun ham Alloh taolo yuqorida eslatganimizdek, bayon qiladi: «(Ular) Allohning ne'matini taniydilar, keyin esa uni inkor etadilar...». Kofirlar ne'matlarning Eshituvchi, Ko'ruvchi, o'xshashi yo'q, har bir ishga Qodir, yolg'iz Allohdan ekan-ligini inkor etadilar. Bular sen so'rganlaring haqidadir. Yordam umid qiladiganimiz Allohdir, Allohdan o'zgaga ehtiyojimiz yo'q, Ishonchimiz Udir.

*Olamlarning Parvardigori Allohga hamd, Xojamiz va sayyidimiz Muhammad alayhissalomga, avlodlariga va barcha sahobalariga Qiyomat kunigacha durud va salomlar bo'lsin!*

[www.muslim.uz](http://www.muslim.uz) dan olindi.

Online o'qish: <http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1681.0>

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

2007